

NEMIS TILIDA TIBBIYOT SOHASIGA OID ZAMONAVIY EVFEMIZMLARNING SEMANTIK TAHLILI

Nurqulov Javlon Rashid o'g'li

O'zDJTU Nemis tili nazariy fanlar kafedrası stajor-o'qituvchisi
javlon.nurkulov0505@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqola zamonaviy tibbiyot siyosatiga oid evfemizmlarning gazeta va jurnallardagi semantik tahliliga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:** Evfemizm, tibbiyot tili, zamonaviy tibbiyot siyosati, semantika, kommunikativ funksiyalar.*

***Annotation:** This article is devoted to the semantic analysis of euphemisms related to modern medical policy in newspapers and journals.*

***Keywords:** Euphemism, medical language, modern medical policy, semantics, communicative functions.*

***Аннотация:** Данная статья посвящена семантическому анализу эвфемизмов современной медицинской политики в газетах и журналах.*

***Ключевые слова:** Эвфемизм, медицинский язык, современная медицинская политика, семантика, коммуникативные функции.*

Jamiyat mavjud ekan, har bir sohada doimiy ravishda taraqqiyot jarayoni davom etadi, yangi g'oyalar va yangiliklar yaratiladi. Ushbu yangiliklar o'z navbatida yangi ilmiy izlanishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Natijada, har bir davr avvalgi bosqichlar bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi va tarixiy hamda ilmiy jarayonlarning uzluksizligini ta'minlaydi. Til esa bu jarayonlarda beqiyos o'rin egallaydi. Chunki u inson tafakkurining ifodasi, ijtimoiy aloqa vositasi va madaniyatni avloddan avlodga yetkazuvchi asosiy omildir. Til shunchalik qudratli vositaki, u inson qalbiga ta'sir ko'rsatish, fikrni nozik ohangda yetkazish hamda muloqotda ijobiy psixologik muhit yaratish imkonini beradi. Shuning uchun ham so'z boyligini chuqur bilish va uni maqsadga muvofiq qo'llash fikrning ifodaviy kuchini belgilaydi. Aynan shu nuqtada tilshunoslikda **evfemizmlar** alohida ahamiyat kasb etadi. Evfemizmlar — ma'no jihatdan salbiy yoki noxush bo'lishi mumkin bo'lgan tushunchalarni yumshoqroq, ijobiyroq shaklda ifodalovchi birliklardir. Ular nutq jarayonida axloqiy me'yorlarga rioya qilish, muloqotni nozik tarzda olib borish va tinglovchi ruhiyatiga zarar yetkazmaslik maqsadida qo'llanadi. Shu bois, evfemizmlar tilning estetik va ijtimoiy funksiyalarini uyg'unlashtiruvchi muhim vosita sifatida baholanadi.

So'nggi yillarda salomatlik va unga bog'liq holatlar bilan bog'liq evfemizmlar soni sezilarli darajada ortgan. Bu holatning asosiy sababi sifatida pandemiya davrida aholining ortiqcha xavotirga tushishini oldini olishga qaratilgan kommunikativ ehtiyojni ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, tibbiy sohada evfemizmlardan

foydalanish bemorlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik, ularni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda noxush holatlarni yumshoqroq ifodalashga xizmat qiladi.

“Das Karlsruher Gericht hatte zuvor auch mit Verweis auf die Behindertenrechtskonvention entschieden, der Bundestag müsse “unverzüglich” Vorkehrungen zum Schutz von Menschen mit Behinderungen im Fall einer Triage treffen – also, wenn Ärzte entscheiden müssen, wen sie angesichts knapper Ressourcen retten und wen nicht. Bei der Umsetzung habe der Gesetzgeber Spielräume[1]”.

Yuqorida keltirilgan maqolada uchraydigan „**Triage**“ atamasi aslida **saralash** ma'nosini bildiruvchi evfemizm sifatida qo'llanilgan. Ushbu termin tibbiyot amaliyotida favqulodda vaziyatlarda, mavjud resurslar cheklangan holatlarda, shifokor tomonidan bemorlarning qaysi biriga birinchi navbatda yordam ko'rsatilishi yoki hayotini saqlab qolish imkoniyati yuqori bo'lgan shaxsni aniqlash jarayonini anglatadi. Bir qarashda bu jarayonni anglash murakkab tuyuladi, chunki „Triage“ so'zi faqatgina tibbiy kontekstda emas, balki matn doirasida **evfemik ma'no** kasb etadi. Boshqacha aytganda, u og'ir, hissiy jihatdan noqulay holatni yumshoqroq, neytral tarzda ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi. Shu tariqa, bu evfemizm nutqdagi axloqiy, psixologik va ijtimoiy sezgirlikni saqlashga xizmat qiladi.

2019-yil dekabr oyida paydo bo'lgan tojsimon virus (COVID-19) butun dunyo hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Shu davrdan boshlab insonlar faoliyatining deyarli barcha jabhalarida yangi tartib-qoidalar va cheklovlar joriy etildi. Mazkur holat nafaqat ijtimoiy hayotda, balki til tizimida ham sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, pandemiya davrida virus va u bilan bog'liq holatlarni ifodalovchi yangi leksik birliklar paydo bo'ldi, mavjud so'zlar esa yangi semantik ma'no kasb etdi. Shuningdek, bu jarayonda ayrim so'z va iboralar **evfemizm** sifatida shakllanib, salbiy yoki qo'rqinchli mazmunlarni yumshoqroq, neytral tarzda ifodalash vazifasini bajara boshladi. Bunday evfemik birliklar sirasiga quyidagi so'zlarni misol keltirish mumkin.

“Schon in wenigen Wochen könnten in den USA die ersten Kinder unter fünf Jahren gegen Corona geimpft werden [2]”.

„Corona“ atamasi lotincha *corona* — „toj“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab shakl jihatidan tojga o'xshash virus tuzilishini ifodalash uchun ishlatilgan. Shu bois bu atama virus nomi sifatida qabul qilingan. Biroq mazkur so'zning qo'llanilishi faqat terminologik emas, balki psixologik jihatdan ham ahamiyat kasb etadi. Chunki „virus“ so'zining bevosita ishlatilishi odamlar ongida qo'rquv, vahima va salbiy hissiyotlarni uyg'otishi mumkin. Shu sababli „Corona“ so'zi evfemistik vosita sifatida tanlanib, u orqali pandemiya haqidagi ma'lumotlarni yumshoqroq, hissiy bosimni kamaytirgan holda ifodalash imkoniyati yaratilgan.

“Auch 30 Jahre nach Öffnung der ungarischen Grenze muss der Kontinent immer wieder entscheiden, welchen Weg er gehen will [3]”.

Mazkur maqolada keltirilgan „Öffnung“ soʻzi dastlab „chegaralarni ochish“ yoki „ochiqlik siyosatiga oʻtish“ maʼnosida qoʻllanilgan. Biroq pandemiya davrida ushbu soʻzning semantik maydoni kengayib, u karantin choralari yumshatilishi, kundalik hayot tarzining asta-sekin avvalgi holatiga qaytarilishi hamda transport va xalqaro aloqalarning tiklanishini anglatadigan evfemistik maʼnoda ishlatila boshlandi. Shu tariqa, „Öffnung“ soʻzi pandemiya sharoitida til va jamiyat oʻrtasidagi dinamik aloqaning yorqin ifodasi sifatida namoyon boʻladi.

“In Spanien steigen die Infektionszahlen immer schneller. Schuld daran trägt offenbar vor allem die Politik, die nicht entschieden genug handelt. Das Epizentrum liegt in der Hauptstadt [4]”.

Aslida, „Epizentrum“ termini geografiyada zilzila markazining bevosita yuqorisida joylashgan yer yuzasi qismini ifodalaydi. Biroq pandemiya davrida ushbu atama metaforik tarzda kengaytirilgan maʼno kasb etdi. Endilikda u epidemiyaning eng faol tarqalgan hududini yoki virus bilan bogʻliq ilmiy-tadqiqot markazlarini, xususan, laboratoriya tekshiruvlari va davolash jarayonlari olib boriladigan joylarni anglatadi. Soʻzning evfemistik xususiyati esa, aynan qisqartirilgan shaklda qoʻllanilishi orqali, holatning jiddiyligini yumshatish va salbiy emotsional taʼsirni kamaytirish bilan izohlanadi.

“Auch jetzt, angesichts COVID-19 steigt die Exzessmortalität, sterben mehr Menschen, als man üblicherweise erwarten würden [5]”.

Maqolada pandemiya davrida COVID-19 tufayli oʻlim holatlari keskin ortgani haqida soʻz yuritilgan. Ushbu jarayonni tasvirlashda „die Exzessmortalität“ atamasi qoʻllanilgan boʻlib, u bevosita inson hayoti bilan bogʻliq ogʻir mavzuni yumshoqroq tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu soʻz evfemizm sifatida talqin qilinadi, chunki u „die Übersterblichkeit“ atamasiga nisbatan kamroq salbiy boʻyoqqa ega. Shunday qilib, „Exzessmortalität“ atamasining tanlanishi jamiyatda vahima va qoʻrquvning oldini olish, shuningdek, mazkur holat haqida muvozanatli tonda maʼlumot berish maqsadini koʻzlagan.

“Mit dem Gesetz sollen vor allem ältere Verbraucher vor unlauteren Geschäftspraktiken geschützt werden. Zukünftig dürfen deswegen keine Finanzdienstleistungen und Nahrungsergänzungsmittel auf Kaffeefahrten verkauft werden [6]”.

„Nahrungsergänzungsmittel“ soʻzi turli dori-darmonlarni anglatadi. Ushbu vositalar qoʻshimcha oziq-ovqat mahsuloti sifatida taqdim etilgani sababli eʼtiborni jalb qilmaydi, ammo ular baʼzan ozish yoki boshqa maqsadlar uchun ishlatiladigan dorilar shaklida boʻlib, sogʻliq uchun salbiy taʼsirga ega boʻlishi mumkin. Ularni

bevosita „dori“ deb atamasdan, evfemik tarzda ifodalash lingvistik jihatdan salbiy ohangni yumshatishga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan misollar shuni ko'rsatadiki, evfemizmlar, ayniqsa, tibbiyot siyosati va sog'liqni saqlash diskurslarida qo'llaniladiganlarining o'rni juda muhim hisoblanadi. Chunki tibbiyot sohasidagi voqealarni lingvistik jihatdan tasvirlash va ularni bemorlar, jamoatchilik hamda mutaxassislariga to'g'ri yetkazish katta mas'uliyat talab qiladi. Aynan tibbiyot diskurslarida evfemizmlarning qo'llanilishi orqali murakkab, salbiy yoki qo'rqinchli ma'lumotlar yumshoq, neytral va tushunarli tarzda taqdim etilib, jamiyatdagi sog'liq bilan bog'liq o'zgarishlarning oqibatlarini to'g'ri talqin qilinishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Behinderte Menschen müssen bei Triage geschützt werden, Frankfurter Allgemeine Zeitung, www.faz.net, 28.12.2021
2. Corona: Deutsche Politik sieht keine Eile bei Impfung von Kleinkindern, der Spiegel, www.spiegel.de, 01.02.2022
3. Kornelius S. Europa hat die Wahl, Süddeutsche Zeitung, www.sueddeutsche.de, 19.09.2019
4. Christian Rössler H. Virusbombe Madrid, Frankfurter Allgemeine Zeitung, www.faz.net, 07.09.2020
5. Prof., dr. med. Scherer M. und Nöbler D. COVID-19 und Exzessmoralität: Sterben ist mehr als nur eine Ziffer, Ärzte Zeitung, www.aerztezeitung.de, 29.04.2020
6. Bundestag verschärft Regeln für Kaffeefahrten, Frankfurter Allgemeine Zeitung, www.faz.net, 11.06.2021